“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=351

2026-yil
2-son
fevral
ISSN 3093-8546

Qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha taraflarning javobgarligi

Olim Umbetov,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: o.umbetov@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha taraflarning fuqarolik-huquqiy javobgarligi masalalari tahlil qilinadi. Unda buyurtmachi va ijrochining majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlik asoslari, shartlari hamda o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning to‘rt sharti — huquqqa xiloflik, ayb, zarar va sababiy bog‘lanish — qo‘riqlash munosabatlari doirasida alohida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, zarar tushunchasi, uning turlari, real zarar va boy berilgan foyda masalalari, javobgarlikni cheklash imkoniyati hamda sud amaliyoti tahlil etilgan. Muallif tomonidan qo‘riqlash tashkilotlari javobgarligini normativ-huquqiy jihatdan takomillashtirish zarurati asoslab berilgan.

Калит сўзлар. qo‘riqlash shartnomasi, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, zarar, real zarar, sababiy bog‘lanish, ayb, buyurtmachi, ijrochi, javobgarlikni cheklash, sud amaliyoti

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы гражданско-правовой ответственности сторон по договору охраны. Проанализированы основания и условия привлечения к ответственности заказчика и исполнителя за неисполнение либо ненадлежащее исполнение обязательств. Особое внимание уделено четырём традиционным условиям гражданско-правовой ответственности: противоправности поведения, вине, наличию вреда и причинной связи. Исследуются понятие и виды убытков, соотношение реального ущерба и упущенной выгоды, а также особенности ограничения ответственности в договоре охраны. На основе анализа судебной практики обосновывается необходимость совершенствования нормативно-правового регулирования ответственности охранных организаций.

Ключевые слова. договор охраны, гражданско-правовая ответственность, убытки, реальный ущерб, причинная связь, вина, заказчик, исполнитель, ограничение ответственности, судебная практика

Annotation. This article examines the issues of civil liability of the parties under a security services contract. It analyzes the legal grounds and conditions

for holding the customer and the contractor liable for non-performance or improper performance of contractual obligations. Particular attention is paid to the four traditional elements of civil liability: unlawfulness, fault, damage, and causal link. The paper also explores the concept and types of damages, including actual damage and lost profit, as well as the possibility of limiting liability within the contract. Based on judicial practice analysis, the author substantiates the need to improve the regulatory framework governing the liability of security organizations.

Keywords. security contract, civil liability, damages, actual damage, causal link, fault, customer, contractor, limitation of liability, judicial practice

Qo‘riqlash shartnomasini tadqiq qilish uning asosida kelib chiqadigan majburiyatlarni buzganlik uchun buyurtmachi va ijrochi javobgarligi masalalarini o‘rganishsiz to‘liq bo‘lmaydi. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning tushunchasi, uning mohiyati hamda amal qilish mexanizmiga oid masalalar uzoq yillardan buyon huquqshunos olimlar o‘rtasida ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda.

Sivilist-olimlar orasida bugungi kunga qadar ham huquqiy javobgarlik tushunchasiga nisbatan yagona yondashuv shakllanmagan. Mazkur bahslarga chuqur kirishmasdan, ushbu tadqiqot maqsadlari uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikka O.S.Ioffe tomonidan berilgan ta’rifni asos qilib olish mumkin, ya’ni: “fuqarolik-huquqiy javobgarlik bu huquqbuzarlik uchun qo‘llaniladigan sanksiya bo‘lib, u huquqbuzar uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi va bunday oqibatlar sub’yektiv fuqarolik huquqlaridan mahrum etish yoki yangi yohud qo‘shimcha fuqarolik-huquqiy majburiyatlarni yuklashda ifodalanadi”[1:206-207].

Mazkur yondashuvga muvofiq, fuqarolik-huquqiy javobgarlik faqatgina huquqbuzarlik sodir etilgan hollarda vujudga keladi. Bunda davlat huquqiy tartibning buzilishiga nisbatan sanksiya qo‘llash orqali munosabat bildiradi, ya’ni huquqbuzarga nisbatan qo‘shimcha huquqiy yuklama yuklanadi yoki undan muayyan mol-mulk ekvivalentsiz tarzda olib qo‘yiladi.

Shartnomalarga nisbatan, xususan qo‘riqlash shartnomasi doirasida huquqbuzarlik, odatda, majburiyatni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik shaklida namoyon bo‘ladi. Majburiyat buzilganligi uchun jazo esa aybdor qarzdorga nisbatan mulkiy javobgarlik choralarini qo‘llash orqali ifodalanadi. Shu bilan birga, majburiyat taraflaridan birini javobgarlikka tortish uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik yuzaga kelishining tegishli shartlari mavjudligini aniqlash zarur.

Fuqarolik-huquqiy doktrinada javobgarlikning to‘rtta asosiy sharti mavjudligi an’anaviy ravishda e’tirof etiladi. Ularga huquqqa xilof xatti-harakat, ayb, yetkazilgan zarar hamda ushbu huquqqa xilof harakat bilan vujudga kelgan zarar o‘rtasidagi sababiy bog‘liqlik kiradi[2:654-657]. Quyida mazkur shartlarni qo‘riqlash

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

shartnomasi taraflarining javobgarligi nuqtayi nazaridan alohida-alohida ko‘rib chiqamiz.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ushbu paragraf doirasida faqat mulkni qo‘riqlash hamda jamoat tartibini saqlashga oid qo‘riqlash shartnomalari bo‘yicha javobgarlik masalalari tahlil qilinadi. Jismoniy shaxslarni qo‘riqlash to‘g‘risidagi shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni buzish holatlari amaliyotda kam uchraydi, bunday shartnomalarning tuzilishi esa, asosan, huquqbuzarliklarning oldini olish (profilaktik) xususiyatiga ega.

Bundan tashqari, jismoniy shaxsning hayoti va sog‘lig‘ini qo‘riqlash bo‘yicha majburiyatlarni lozim darajada bajarmaslik holatlarida ijrochining javobgarligini tahlil qilish fuqarolik protsessual huquqi sohasiga oid qator masalalar bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi va shu sababli u alohida mustaqil tadqiqot ob’yekti sifatida o‘rganishni talab qiladi. O‘R FK 236-moddasiga muvofiq, majburiyatlar majburiyat shartlariga va qonunchilik talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo‘lmaganida esa ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo‘yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi kerak[3]. Shu sababli, qo‘riqlash bo‘yicha majburiyat buzilgan holatlarda bunday buzilishning huquqqa xilofligi, qoida tariqasida, taxmin qilinadi va odatda kreditor tomonidan alohida isbotlanishini talab etmaydi. Biroq amaldagi sud tajribasi shuni ko‘rsatadiki, da’vo talablarini qanoatlantirishdan bosh tortish holatlari ko‘pincha da’vogar tomonidan qo‘riqlash tashkiloti majburiyatni umuman bajarmagani yoki uni lozim darajada bajarmaganini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etilmagani bilan bog‘liq bo‘ladi. Xususan, Chirchiq tumanlararo Iqtisodiy sudi yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan javobgar “Chirchiq shahar Qo‘riqlash bo‘limi”ga nisbatan yetkazilgan zararni undirish to‘g‘risida kiritilgan da’voni rad etgan. Sud bunday qarorni qo‘riqlash xodimlari tomonidan qo‘riqlanadigan ob’yektda yuz bergan yong‘in haqida yong‘in xizmatiga o‘z vaqtida yoki tegishli tarzda xabar berilmagani haqidagi holat isbotlanmagani bilan asoslagan[4].

Qo‘riqlash shartnomalarini tuzish jarayonida taraflar, odatda, ijrochining, ya’ni qo‘riqlash tashkilotining javobgarligi yuzaga keladigan asoslarni alohida kelishib oladilar. Aynan shu holat ayrim mualliflarga quyidagi xulosani ilgari surish imkonini bergan: “Idoraviy jihatdan tegishli bo‘lmagan qo‘riqlash bo‘linmalari javobgarligining o‘ziga xosligi shunda namoyon bo‘ladiki, ular shartnomani lozim darajada bajarmaganlik natijasida yuzaga kelgan barcha zararlar uchun emas, balki faqat muayyan yo‘llar bilan yetkazilgan zararlar uchun javobgar bo‘ladi”[5:148]. Xususan, O.Y. Ruchkinning fikricha, bunday zararlarga qo‘riqlanadigan ob’yektlardagi binolar, qulflar, qulflash uskunalari, eshik va derazalar, vitrinalar hamda to‘siqlarni buzish yo‘li bilan sodir etilgan o‘g‘riliklar; qo‘riqlashning lozim darajada ta’minlanmagani oqibatida yoki idoraviy bo‘lmagan qo‘riqlash tomonidan ob’yektda belgilangan tovar-moddiy boyliklarni olib kirish yoki olib chiqish

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

tartibiga rioya etilmagani natijasida kelib chiqqan holatlar; shuningdek, talonchilik yoki bosqinchilik yo‘li bilan sodir etilgan talon-torojlar; qo‘riqlanadigan ob’yektga noqonuniy kirgan yoki idoraviy bo‘lmagan qo‘riqlash xodimlarining aybi bilan boshqa sabablarga ko‘ra mol-mulkni yo‘q qilish yoki unga shikast yetkazish holatlari kiradi [6].

Bizningcha, shartnomada nazarda tutiladigan bunday javobgarlik asoslari, avvalo, qo‘riqlash bo‘yicha vujudga keladigan majburiyatning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Ushbu asoslar majburiyat mazmunini aniqlashtiradi, xususan qo‘riqlash xizmatini tashqi xavf-xatarlardan himoya qilishga qaratilgan xususiyatini, ya’ni uning faqat qo‘riqlashga qabul qilingan obyektni uchinchi shaxslar tajovuzidan asrashga yo‘naltirilganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, bunday asoslar shartnomada umuman ko‘rsatilmasligi ham mumkin. Har qanday holatda ham javobgarlik faqat qo‘riqlash bo‘yicha majburiyatning bajarilmagani yoki lozim darajada bajarilmagani mavjud bo‘lgan taqdirdagina yuzaga keladi. Bunday bajarmaslik yoki nomaqbul bajarish qay tarzda namoyon bo‘lishi esa muayyan shartnoma predmetining xususiyatlariga, shartnoma mazmuniga hamda ko‘rsatilayotgan qo‘riqlash xizmatining o‘ziga xos jihatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Shundan kelib chiqib, qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha ijrochining javobgarligini belgilashda zarar yetkazishning muayyan bir usuli hal qiluvchi ahamiyatga ega emas, deb hisoblaymiz. Asosiy shart shundan iboratki, yuzaga kelgan zarar qo‘riqlash tashkilotining shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi bilan sababiy bog‘liqlikda bo‘lishi lozim. Albatta, agar zarar mol-mulkning yo‘q qilinishi yoki shikastlanishi ushbu mol-mulkning tabiiy, ob’yektiv xususiyatlari bilan bog‘liq sabablar natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, bunday holatda qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha ijrochi javobgar bo‘lmaydi. Chunki uning majburiyatlari faqat tashqi qo‘riqlash, ya’ni ob’yektni tashqi xavf-xatarlardan himoya qilish bilan cheklangan bo‘ladi.

Qo‘riqlash xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq majburiyatlar buzilgan hollarda tomonlarni javobgarlikka tortishning ikkinchi muhim sharti aybning mavjudligidir. O‘R FK 333-moddasi 1-qismiga muvofiq, qarzdor aybi bo‘lgan taqdirda majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, javob beradi[7]. Demak, fuqarolik-huquqiy javobgarlikning umumiy qoidasi sifatida, huquqbuzarlik uchun javobgarlik aybning mavjudligi bilan bog‘lanadi. Shu bilan birga, qarzdor majburiyatni lozim darajada bajarish uchun o‘ziga bog‘liq bo‘lgan hamma choralarni ko‘rganligini isbotlasa, u aybsiz deb topiladi[8].

Masalan, transportda tashiladigan yuklarni qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha “agar idoraviy jihatdan tegishli bo‘lmagan qo‘riqlash tashkilotining xodimlari hujumni qaytarish, shu jumladan qurol va boshqa maxsus vositalarni qo‘llash bo‘yicha barcha choralarni ko‘rganligi isbotlansa”[9:151-152], huquqbuzarlarni

ushlagan bo‘lsa yoki ushlash uchun barcha zarur choralarni ko‘rgan bo‘lsa, javobgarlikka tortilmaydi.

Shunga qaramay, ushbu qoidada bir qator istisnolar bor: birinchidan, u dispozitiv xususiyatga ega bo‘lib, taraflar tomonidan o‘zgartirilishi mumkin; ikkinchidan, O‘R FK 333-moddasi 3-qismiga muvofiq, “Basharti, qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxs majburiyatni lozim darajada bajarishga yengib bo‘lmaydigan kuch, ya’ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan vaziyatlar (fors-major) tufayli imkon bo‘lmaganligini isbotlay olmasa, javobgar bo‘ladi”[10].

Ayb uchun javobgarlik prinsipidan chetga chiqish imkoniyati qo‘riqlash shartnomalarini tuzish jarayonida taraflar tomonidan amaliy jihatdan faol qo‘llaniladi. Xususan, qo‘riqlash tashkilotlari shartnomalarda, odatda, o‘z javobgarligi faqat ayb mavjud bo‘lgan taqdirdagina yuzaga kelishini alohida qayd etib qo‘yadilar. Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, amaliyotda qo‘riqlash xizmatlari ko‘rsatishga oid shartnomaviy munosabatlarda ishtirok etuvchi taraflar hali shartnoma shartlarini kelishish bosqichidayoq, majburiyatni buzgan shaxsga nisbatan fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralarini qo‘llash uchun uning aybi mavjud bo‘lishi shart ekanligini maxsus tarzda belgilab qo‘yadilar[11:159]. Biroq, davlatga tegishli qo‘riqlash tashkilotlari faoliyatida esa bunday qoidaga alohida ehtiyoj mavjud emas. Bu masalada V.V. Abramovning fikriga qo‘shilish mumkin, u davlat qo‘riqlash xizmatlarining fuqarolik-huquqiy javobgarligi o‘ziga xos xususiyatga ega ekanini ta’kidlab, bunday javobgarlik qo‘riqlash xizmati xodimlarining mulk egasini mol-mulki saqlanishini ta’minlash bo‘yicha o‘z xizmat vazifalariga nisbatan lozim darajada munosabatda bo‘lmasligi, ya’ni aybli harakatlari natijasida moddiy zarar yetkazilgan hollarda yuzaga kelishini qayd etadi[12:88].

Ayb mavjud bo‘lgan taqdirdagina javobgarlikka tortish sharti nafaqat ijrochiga, balki buyurtmachiga nisbatan ham qo‘llaniladi. Sud amaliyotida bu holat o‘z tasdig‘ini topgan. Xususan, ishlarning birida Toshkent shahar sudining Iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudlov Hay’ati quyi sud instansiyasi chiqargan qarorni qo‘riqlash xizmati uchun to‘lovni kechiktirganlik sababli penya undirish hamda boshqa shaxs mablag‘laridan foydalanganlik uchun foizlar hisoblash qismini bekor qildi va ushbu talablarni qanoatlantirishni rad etdi. Hay’at o‘z qarorini quyidagi holatlar bilan asosladi: Qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha buyurtmachi Chilonzor tuman Davlat soliq inspeksiyasi bo‘lgan. Moliyalashtirish yetarli darajada ajratilmagani sababli mazkur soliq organi qo‘riqlash xizmatlari uchun o‘z vaqtida haq to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lmagan. Shu bilan birga, ish materiallarida soliq inspeksiyasi tomonidan yuqori turuvchi soliq organlariga zarur mablag‘larni ajratish haqida yo‘llangan rasmiy murojaatlar mavjud bo‘lgan. Ushbu holatlar asosida sud buyurtmachi o‘z majburiyatlarini bajarish uchun

barcha zarur choralarni ko‘rgan, deb xulosa qildi. Demak, u O‘R FK 333-moddasi 1-qismi ma’nosida aybsiz deb topildi va bu penya qo‘llashdan ozod etish uchun yetarli huquqiy asos hisoblanadi. Shuningdek, Hay’at O‘R FK 327-moddasi 1-qismiga tayanib, boshqa shaxslarning pul mablag‘larini g‘ayriqonuniy ushlab qolish, ularni qaytarib berishdan bosh tortish, ularni to‘lashni boshqacha tarzda kechiktirish yoxud boshqa shaxs hisobidan asossiz olish yoki jamg‘arish natijasida ulardan foydalanganlik amalda mavjud bo‘lgan holatlarda qo‘llanilishini qayd etdi. Mazkur ishda esa javobgar byudjetdan zarur mablag‘larni olmagani sababli ulardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan. Shu bois, O‘R FK 327-moddasi 1-qismiga asoslangan javobgarlikni qo‘llash uchun zarur bo‘lgan muhim element, ya’ni boshqa shaxs mablag‘laridan foydalanish fakti mavjud emas deb topildi va natijada foizlar undirish haqidagi talab ham rad etildi[13].

Ko‘rib chiqilayotgan majburiyat bo‘yicha taraflarni javobgarlikka tortishning uchinchi sharti zararning mavjudligidir. Qo‘riqlash shartnomasi doirasida zarar, qoida tariqasida, moddiy ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

O‘R FK 14-moddasi 2-qismiga muvofiq, zarar deganda, huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo‘lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo‘qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek bu shaxs o‘z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo‘lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi[14]. O‘R FK 14-moddasi 3-qismiga muvofiq, agar huquqni buzgan shaxs buning natijasida daromad olgan bo‘lsa, huquqi buzilgan shaxs boshqa zarar bilan bir qatorda boy berilgan foyda bunday daromaddan kam bo‘lmagan miqdorda to‘lanishini talab qilishga haqli[15].

Fuqarolik huquqida zararlarni to‘liq qoplash prinsipi amal qiladi. Biroq, O‘R FK 14-moddasi 1-qismiga ko‘ra, huquqi buzilgan shaxsning yetkazilgan zararlarni to‘liq qoplashni talab qilish huquqi dispozitiv xususiyatga ega. Shu sababli qonunga yoki shartnomaga asosan ushbu qoidadan chekinish, ya’ni qoplanadigan zarar miqdorini kamaytirishga yo‘l qo‘yiladi. Mazkur qonuniy imkoniyatdan qo‘riqlash shartnomasi taraflari amalda deyarli doimo foydalanadilar. Xususan, ular ijrochining javobgarligini faqat real zarar bilan cheklab, yo‘qotilgan foydani istisno qiladilar, ya’ni qo‘riqlanayotgan mol-mulkning yo‘qolishi yoki shikastlanishi bilan bog‘liq zararlargina qoplanadi.

Masalan, transportda tashiladigan yuklarni qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha majburiyatlar lozim darajada bajarilmagan taqdirda, qo‘riqlash tashkilotining javobgarligi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lgan real zarar bilan cheklanadi: jinoiy tajovuz natijasida qo‘riqlovda bo‘lgan va o‘g‘irlangan yoki yo‘q qilingan mol-mulk qiymati; tajovuz oqibatida shikastlangan moddiy boyliklarning qiymatidan pastga tushishi; zarar ko‘rgan mol-mulkni tiklash maqsadida qilingan xarajatlar[16:152-153].

Ijrochi, qoida tariqasida, faqat qo‘riqlanayotgan mol-mulkning yo‘qolishi yoki shikastlanishi uchun javobgar bo‘lishi bilan bir qatorda, ayrim holatlarda uning javobgarligi miqdori cheklanishi mumkin. Bunday tartib, ayniqsa, qo‘riqlashning texnik vositalari o‘rnatilgan obyektlarni qo‘riqlash shartnomalarida, shuningdek, transportda tashiladigan yuklarni qo‘riqlash shartnomalarida keng qo‘llaniladi. Buning sababi shundaki, mazkur turdagi shartnomalar, boshqa qo‘riqlash shartnomalaridan farqli o‘laroq, qo‘riqlashga topshirilayotgan mol-mulkni oldindan ko‘zdan kechirish yoki uning batafsil ro‘yxatini tuzmasdan amalga oshiriladi. Qo‘riqlanayotgan binoda (masalan, kvartirada) mavjud mol-mulkning qiymatini yoki transportda tashiladigan yuklarni bevosita buyurtmachi o‘zi baholaydi va ushbu baholash summasi shartnomada aks ettiriladi. Agar qo‘riqlash amalga oshirilayotgan davrda qo‘riqlanayotgan ob’yektdan mol-mulk o‘g‘irlanganligi aniqlansa yoki tashish jarayonida mol-mulk o‘g‘irlangan yoki shikastlangan bo‘lsa, ijrochining javobgarligi shartnomada ko‘rsatilgan mol-mulk bahosi miqdori bilan cheklanadi.

Shuningdek, qo‘riqlanayotgan mol-mulkka zarar yetkazilgan hollarda qo‘riqlash tashkilotining javobgarligi masalasiga ham to‘xtalib o‘tish lozim. Jumladan, G.P.Chubning ta’kidlashicha, kvartiralarni qo‘riqlashda qo‘llanilayotgan usullar begona shaxslarning ob’yektga kirib kelishini to‘liq bartaraf eta olmaydi. Shu sababli, uchinchi shaxslar tomonidan mol-mulkka yetkazilgan zararni avtomatik ravishda qo‘riqlash xizmati zimmasiga yuklash mumkin emas. Muallif fikricha, qo‘riqlash signalizatsiyasi asosan qo‘riqlanayotgan ob’yektga tajovuz bo‘lganligi haqida xabar berish funksiyasini bajaradi. Bu esa ob’yektga noqonuniy kirgan shaxslarni o‘z vaqtida aniqlash va ushlab qolish imkonini yaratadi hamda moddiy boyliklarning o‘g‘irlanishini oldini oladi. Begona shaxslarning tezkor aniqlanishi esa kvartira egasiga yoki ijarachiga, agar kvartira yoki undagi mol-mulkka zarar yetkazilgan bo‘lsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarar yetkazgan shaxslarga nisb atan da’vo qo‘zg‘atish imkoniyatini beradi[17:13-14].

Muallif tomonidan ilgari surilgan mazkur xulosalarga qo‘shilish qiyin. Chunki, qo‘riqlash shartnomasini tuzish orqali buyurtmachi o‘zining qo‘riqlovga topshirilayotgan mol-mulki saqlanishini va himoya qilinishini ta’minlashga bo‘lgan ehtiyojini qondirishni ko‘zlaydi. Bu ehtiyoj esa, pirovard natijada, mol-mulkni har qanday g‘ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qilish istagi bilan bog‘liq. Agar muallifning yondashuvi qabul qilinsa, amalda shunday adolatli bo‘lmagan holat yuzaga keladi: qo‘riqlanayotgan ob’yektga kirib kelgan shaxslar qo‘riqlash xizmati xodimlari tomonidan ushlangan taqdirda buyurtmachi o‘z mulkiy huquqlarini tiklash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Biroq jinoyatchilar ushlanmagan hollarda, buyurtmachi de-fakto bu imkoniyatdan mahrum bo‘lib qoladi. Jinoyatlarning ochilish darajasi pastligini inobatga olgan holda, tergov natijasida huquqbuzarlarni aniqlash ehtimolini hisobga olmaslik maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz. Bundan tashqari, agar qo‘riqlash tashkiloti

tomonidan qoidabuzar ushlanmagan bo‘lsa, bu holat ijrochining qo‘riqlash bo‘yicha majburiyatini lozim darajada bajarmaganini anglatadi. Mazkur vaziyatda shartnoma majburiyatining bunday tarzda bajarilmasligi oqibatlarini buyurtmachi zimmasiga yuklash emas, balki aybdor tomon — ya’ni shartnoma bo‘yicha ijrochi hisoblangan qo‘riqlash tashkiloti javobgarligiga yuklash ancha adolatli va huquqiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bizningcha, hatto obyektni qo‘riqlash faqat qo‘riqlashning texnik vositalari orqali amalga oshirilgan taqdirda ham, ijrochi qo‘riqlanayotgan ob’yektga noqonuniy kirib kelgan shaxslar tomonidan mol-mulkka yetkazilgan zarar yoki uning buzilishi uchun javobgar bo‘lishi lozim. Bunda istisno sifatida faqat signalizatsiya ishga tushishiga bevosita sabab bo‘lgan ashyolar – masalan, eshik, oyna, qulf va shu kabi konstruktiv elementlarning shikastlanishi holatlarinigina ko‘rsatish mumkin[18:139-140]. Shu bilan birga albatta, shartnoma erkinligi tamoyilidan kelib chiqib, taraflar qo‘riqlash tashkilotining bunday javobgarligini shartnoma matnida maxsus shart kiritish orqali cheklab qo‘yishlari huquqiy jihatdan to‘g‘ri va qonuniy hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha javobgarlik cheklangan xarakterga ega, degan qarash ham mavjud. Xususan, O.Y.Ruchkinning ta’kidlashicha, idoraviy jihatdan tegishli bo‘lmagan qo‘riqlash xizmatlarining fuqarolik-huquqiy javobgarligi cheklangan bo‘lib, bunday cheklovlar namunaviy shartnomalarda va javobgarlikka oid maxsus shartlarda aks etgan[19:147-148]. Muallif bu holatni amaldagi fuqarolik qonunchiligiga zid emas deb hisoblaydi (xususan, O‘R FK 332-moddasi qoidalariga). Ushbu fikrni V.I.Smirnov ham qo‘llab-quvvatlaydi[20:145-146].

Biroq bizning fikrimizcha, qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha ijrochining javobgarligini aynan shu tarzda “cheklangan javobgarlik” sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. Darhaqiqat, FK 332-moddasida ayrim turdagi majburiyatlar yoki muayyan faoliyat turlari bo‘yicha javobgarlik miqdorini cheklash imkoniyati nazarda tutilgan. Ammo ushbu cheklov faqat qonunning o‘zida bevosita belgilangan hollardagina qo‘llanilishi mumkin. Demak, javobgarlikni cheklash namunaviy shartnoma yoki tomonlarning kelishuvi asosida emas, balki faqat qonun normasiga tayanilgan holda amalga oshirilishi lozim.

Hozirgi paytda na qonun darajasida, na qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar doirasida qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha javobgarlikni maxsus tarzda cheklashni nazarda tutuvchi qoidalar mavjud emas. Shuningdek, amaliyotda qo‘llanilayotgan namunaviy shartnomalar ham yuridik kuchga ega deb qaralishi mumkin emas, chunki ular huquq va majburiyatlarni belgilaydigan normativ manba emas, balki faqat standart shakl yoki tavsiyaviy formulyar sifatida xizmat qiladi. Biroq bu holat shartnoma taraflariga o‘z kelishuvi asosida javobgarlik hajmini belgilash yoki ma’lum darajada cheklash imkoniyatini istisno etmaydi. Bunday cheklov FK 332-moddasiga emas, balki fuqarolik huquqida umumiy

qoida sifatida belgilangan zararni to‘liq qoplash prinsipidan chekinish imkonini nazarda tutuvchi FK 14-moddasi qoidalariga tayanadi.

Majburiyat taraflarini qo‘riqlash munosabatlaridan kelib chiqadigan fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortishning to‘rtinchi muhim sharti – majburiyat bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi bilan yetkazilgan zarar o‘rtasida sababiy bog‘lanish mavjud bo‘lishidir. Shu jihatdan, aynan sababiy bog‘lanishni aniqlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki zararning vujudga kelishi aynan shartnoma taraflarining majburiyatni buzgan harakatlari (yoki harakatsizligi) natijasi ekanligi isbotlanmasa, uni javobgarlikka tortish huquqiy jihatdan asossiz hisoblanadi.

Amaliyotda odatda yetkazilgan zarar bilan qo‘riqlash tashkilotining faoliyati o‘rtasida sababiy bog‘lanishni aniqlash katta qiyinchilik tug‘dirmaydi. Biroq ayrim holatlarda bunday bog‘lanishning mavjud emasligini tan olish zarur bo‘ladi. Xususan, agar o‘g‘irlik qo‘riqlash pultiga ulangan signalizatsiya vositasi orqali qo‘riqlanadigan ob’yekt qo‘riqlashga rasman topshirilmagan paytda sodir etilgan bo‘lsa, qo‘riqlash tashkiloti harakatlari bilan yetkazilgan zarar o‘rtasida sababiy bog‘lanish mavjud emas deb hisoblanadi. Shuningdek, obyekt qo‘riqlashga topshirilgan bo‘lsa-da, jinoyatchilar obyektga buyurtmachi qo‘riqlash signalizatsiyasi o‘rnatishdan voz kechgan joylar (masalan, jihozlanmagan derazalar) orqali kirgan hollarda ham sababiy bog‘lanish inkor etiladi. Shu bilan birga, buyurtmachida kelib chiqqan zarar yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etilmasligi, ayniqsa elektr jihozlaridan noto‘g‘ri foydalanish natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, bunday holatlarda ham qo‘riqlash tashkilotining majburiyatni buzishi bilan zarar o‘rtasida sababiy bog‘lanish mavjud deb hisoblab bo‘lmaydi. Chunki bunday zarar qasddan sodir etilgan jinoiy tajovuz natijasi emas, balki buyurtmachining o‘z harakatlari yoki ehtiyotsizligi oqibati hisoblanadi.

Shu tarzda qo‘riqlash bo‘yicha majburiyatlar sub’yektlari uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik, umumiy qoidaga muvofiq, odatda to‘rtta javobgarlik shartining barchasi mavjud bo‘lganda qo‘llaniladi. Biroq, ayrim holatlarda ushbu javobgarlik ularning bir qismi mavjud bo‘lmasligidan qat’i nazar ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, qo‘riqlash xizmatlari uchun to‘lovni kechiktirganlik uchun jarima to‘lash shaklidagi javobgarlikda faqatgina bir shart ya’ni, huquqqa xiloflilik mavjud bo‘lsa yetarli. Bunda, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi buyurtmachilar ushbu javobgarlikka tortilishi mumkin.

Qo‘riqlash majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun qo‘riqlash tashkilotlarini javobgarlikka tortish tartibi haqida ham so‘z yuritish lozim. Ko‘p holatlarda, qo‘riqlash tashkilotlari o‘z majburiyatlarini noqonuniy ravishda bajargan taqdirda, ular keltirilgan zararni ixtiyoriy ravishda qoplaydilar. Shu sababli ham qo‘riqlash tashkilotlari ishtirokidagi sud amaliyoti nisbatan kam uchraydi. Bunga qator jihatlar, jumladan

fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortish uchun zarur shartlarning sodda isbotlanishi ham ta’sir ko‘rsatadi. M.I. Braginskiyning asosli fikriga ko‘ra, “nizo yuzaga kelgan holda, qo‘riqlashga olingan mulkning tarkibini isbotlash yuki, mulkni qo‘riqlashga topshirgan shaxsga yuklanadi” [21:728].

Shu bilan birga, qo‘riqlash shartnomalari odatda zararni qoplash tartibini batafsil belgilaydigan tegishli normalarni o‘z ichiga oladi. V.A.Abramov ta’kidlaganidek, “o‘g‘irlik holati hamda noqonuniy shaxslarni qo‘riqlanadigan ob’yektga kirishi fakti tergov organlari, tekshiruv jarayonida tegishli qaror qabul qilinishi yoki sud tomonidan sud qarorini chiqarishi orqali aniqlanadi, ya’ni bu qo‘riqlash tashkiloti tomonidan keltirilgan zararni qoplash ishlarida isbot vositasi sifatida xizmat qiladi” [22:88]. Shuningdek, o‘g‘irlik yoki qo‘riqlanadigan ob’yektga noqonuniy kirish faktiga doir zarur isbotlar mavjud bo‘lmasligi da’vo talablarini rad etish uchun asos bo‘ladi. Masalan, Samarqand shahar iqtisodiy sudi “Stroy Mir” MCHJ tomonidan Samarqand shahar Qo‘riqlash xizmatiga qarshi bergan da’vosini qanoatlantirishni rad etdi. Sud ta’kidlaganidek, zararni undirish uchun da’vogar shaxs o‘z huquqining buzilganligini, yuklatilgan majburiyatning bajarilmasligi yoki noto‘g‘ri bajarilishi bilan keltirilgan zarar o‘rtasidagi bog‘liqlikni hamda zarar miqdorini isbotlashi shart. Biroq, ish materiallarida javobgar tomonidan da’vogar ob’yektni qo‘riqlash bo‘yicha vazifalar va majburiyatlariga rioya qilinmaganligi haqida isbotlar mavjud emas. Shuningdek, shartnoma asosida qo‘riqlash xizmatlari ko‘rsatishdagi majburiyatlar buzilganligi ham dalillanmagan. Inventarizatsiya jarayonida “Stroy Mir” MCHJ xodimlari ishtirokida aniqlangan yetishmovchiliklar fakti, o‘z-o‘zidan, o‘g‘irlik sodir etilganligini isbotlamaydi va javobgarning da’vogarga ushbu yo‘qotilgan mulk qiymatini qoplash majburiyatini tasdiqlamaydi, hatto ushbu yo‘qotish miqdori aktda ko‘rsatilgan bo‘lsa ham [23].

Ko‘p holatlarda qo‘riqlash shartnomalarida mulkni qo‘riqlash bo‘yicha kelishuvda qo‘yidagi qoidalar ko‘rsatiladi: o‘g‘irlik, talon-taroj, qasddan vayron qilish yoki mulkni shikastlash kabi holatlar, shuningdek, noqonuniy shaxslar tomonidan qo‘riqlanadigan obyektga kirilishi yoki qo‘riqlash xizmatlarini bajaruvchilarning aybi tufayli yuzaga kelgan boshqa zararlar tergov organlari, tekshiruv yoki sud tomonidan aniqlanadi. Shu bilan birga, ijrochining aybi tufayli yuzaga kelgan zararni da’vogar qoplatishi uchun, odatda, da’vogar tomonidan tergov organlari yoki sud qarorlari taqdim qilinadi. Bu holat yanada bir bor qo‘riqlash majburiyatining asosiy maqsadi qo‘riqlanadigan ob’yektni noqonuniy tajovuzlardan himoya qilish ekanligini tasdiqlaydi. Odatda, shartnomada zarar miqdori tegishli hujjatlar va mulkni o‘g‘irlangan, vayron qilingan yoki shikastlangan holda baholash hisob-kitoblari orqali tasdiqlanishi shartligi ham belgilanadi. Bu jarayonda bajaruvchi ishtirok etishi va buxgalteriya ma’lumotlari bilan taqqoslanishi talab qilinadi. Agar qo‘riqlanadigan obyekt shaxsiy mulk (masalan, kvartira yoki xonadon) bo‘lsa, uning qiymati

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

odatda shartnoma imzolangan kuni amaldagi chakana narxlar asosida hisoblanadi. Shuningdek, shartnomada belgilanadigan qoidaga ko‘ra, qaytarilgan mulkning qiymati umumiy da’vo summasidan chiqariladi va bu mulk uchun oldin to‘langan mablag‘ ijrochiga qaytariladi.

Agar qaytarilgan mulkning bir qismi to‘liq yoki yaroqli holatda bo‘lmasa, bu haqda ikki tomon va vakolatli shaxslar ishtirokida akt tuziladi va ushbu qimmatbaho buyumlarning foydali qismi (qiymati) nisbati aniqlanadi. Bunday holatda ijrochi da’vogarga mulkning kamaytirilgan qiymati miqdorida zararni qoplaydi. Shu bilan birga, muqobil imkoniyat ham mavjud: agar ijrochi qo‘riqlanadigan mulkka nisbatan huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni ushlagan bo‘lsa, qo‘riqlash tashkiloti javobgarlikdan ozod etilishi mumkin. Bunda barcha mulkiy da’volar da’vogar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri huquqbuzar shaxsga qaratiladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, majburiyatlarni buzganlik uchun umumiy javobgarlik qoidalaridan tashqari, taraflarning qo‘riqlash shartnomasi doirasidagi munosabatlariga FKning 38-bobi normalari ham tatbiq etiladi. Ushbu bobda haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi doirasida majburiyatlarni to‘liq bajarish bo‘yicha javobgarlik xususiyatlarini aks ettiruvchi maxsus norma mavjud bo‘lsada (FK 706-moddasi), FK 705 va 707-moddalari ham qo‘llaniladi. Ularda xarajatlarni taqsimlash, va zararni qoplash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. FK 706-moddasi haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasini buzganlik uchun ijrochining javobgarligini tartibga soladi. Ammo, FKning 705-moddasi taraflarning javobgarligiga emas, balki majburiyatni bajarishning imkonsizligi yuzaga kelganda xavfni taqsimlashga bag‘ishlangan. FK 707-moddasi esa shartnomadan bir tomonlama voz kechish masalasiga oid bo‘lib, bu voz kechish sababi nima ekaniga qaramay qo‘llanilishi mumkin: taraflarning noqonuniy harakatlari yoki boshqa sabablar. Shu bilan birga, agar ijrochining shartnomadan voz kechishi buyurtmachining noqonuniy harakatlari tufayli yuzaga kelgan bo‘lsa, FK 707-moddasi qoidalarini qo‘llash mumkin emas. Chunki bunday holatda buyurtmachi ijrochiga haqiqiy xarajatlarni qoplashi kerak bo‘ladi, bu esa mantiqiy va adolatli hisoblanmaydi. Haqiqatan ham, shartnomadan voz kechish, agar uning sababi kontragent tomonidan majburiyatlarni bajarmaganlik bo‘lsa, huquqbuzarlikka nisbatan reaksiya hisoblanadi. Shu bois, bunday holatda buyurtmachiga haqiqiy xarajatlarni qoplash majburiyati kabi salbiy oqibatlar yuklanmasligi kerak.

Qo‘riqlash majburiyatlarini bajarmaslik yoki noto‘g‘ri bajarish bo‘yicha taraflarning javobgarligi masalasida xulosa qilganda, umumiy qoidalar asosida shakllanishiga qaramasdan, mazkur javobgarlik yuqorida ko‘rsatilgan xususiyatlarga ega ekanini ta’kidlash maqsadga muvofiqdir.

Shu bois, qo‘riqlash faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga qo‘riqlash tashkilotlarining

javobgarligiga oid tegishli normalarni kiritish zarurligi ko‘rinadi. Xususan, O‘zbekistonning “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi qonunida qo‘riqlash korxonalari javobgarligiga doir hech qanday normalar belgilanmaganini alohida qayd etish mumkin.

Qo‘riqlash shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarda taraflarning javobgarligi masalalarini o‘rganishdan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Birinchidan, qo‘riqlash shartnomasiga taraflarning javobgarlik asoslarini kiritish majburiy emas, chunki ushbu asoslar faqat tashqi qo‘riqlash majburiyatining xususiyatini aks ettiradi. Javobgarlik har holda, buyurtmachi yoki ijrochi tomonidan qo‘riqlash majburiyati bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan holda yuzaga keladi.

Ikkinchidan, qo‘riqlash tashkilotlari faqat o‘z harakatlarida ayb mavjud bo‘lganda javobgarlikka tortiladi, agar shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa.

Uchinchidan, qo‘riqlash majburiyatining taraflari, agar shartnomada boshqacha tartib ko‘rsatilmagan bo‘lsa, to‘liq zararni qoplash tamoyili asosida javobgarlikka tortiladi.

To‘rtinchidan, qo‘riqlash shartnomasi odatda ijrochining javobgarligi faqat real zarar bilan cheklanganishini belgilaydi, ya’ni qo‘riqlanadigan mulkning yo‘qotilishi yoki shikastlanishi. Buyurtmachining javobgarligi odatda maksimal miqdor bilan cheklanadi.

Beshinchidan, agar shartnomada boshqacha tartib ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ijrochi qo‘riqlanadigan ob’yektga noqonuniy kirgan shaxslar tomonidan mulkka yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘ladi.

Oltinchidan, qo‘riqlash shartnomasi doirasidagi munosabatlarga O‘R FK 332-moddasi qo‘llanilmaydi; ijrochining javobgarligi hozirgi kunda faqat shartnoma asosida, FK 14-moddasi 1-qismiga muvofiq cheklanishi mumkin.

Yettinchidan, qo‘riqlashga olingan mulkka zarar yetkazilganligi holati bo‘yicha nizo yuzaga kelgan taqdirda, qo‘riqlashga olingan mulk tarkibini va yetkazilgan zararni isbotlash yuki da’vogar, ya’ni buyurtmachiga yuklanadi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Иоффе О.С. Общее учение об обязательствах // Иоффе О.С. Избранные труды: В 4 т. Т. III. Обязательственное право. — СПб.: Изд-во «Юридический центр Пресс», 2004. - С. 206-207.

3. Қаранг: Shartnoma huquqi. Darslik / R.J.Ro‘ziyev, M.Sh.Choriyev, A.A.Muxammadiyev va boshqalar. -Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022. 654-657 betlar.

3. https://lex.uz/docs/111189#154342

4. Чирчиқ туманлараро Иқтисодий судининг 11-3041-1563/7824-сонли иш юзасидан 2023 йил 23 февралдаги Қарори.

5. Қаранг: Абрамов В.А. Правовые и организационные основы деятельности вневедомственной охраны при органах внутренних дел: Дисс. ... к. ю. н .-М .,2001. -С. 87.; Ручкин О.Ю. Организационно-правовые аспекты участия органов внутренних дел Российской Федерации в договорных обязательствах: Дисс. ... к. ю. н.-М ., 1997. –С.148.
6. Ручкин О.Ю. Организационно-правовые аспекты участия органов внутренних дел Российской Федерации в договорных обязательствах: Дисс. ... к. ю. н.-М ., 1997. –С. 148.
7. https://lex.uz/docs/111189#155348
8. https://lex.uz/docs/111189#155348
9. Ручкин О.Ю. Организационно-правовые аспекты участия органов внутренних дел Российской Федерации в договорных обязательствах: Дисс. ... к. ю. н.-М ., 1997. –С. 151-152.
10. https://lex.uz/docs/111189#155348
11. Горовенко В.В. Гражданско-правовое регулирование частной детективной и охранной деятельности. Дисс. ... к.ю.н. - Екатеринбург, 2002. -С. 159.
12. Абрамов В.А. Правовые и организационные основы деятельности вневедомственной охраны при органах внутренних дел: Дисс. ... к. ю. н .-М .,2001. -С. 88.
13. Қаранг: Тошкент шаҳар суди Иқтисодий ишлар буйича судлов Ҳайъати апелляция истанциясининг 7-1108-4103/3230-сонли иш юзасидан 2020 йил 29 майдаги Қарори.
14. https://lex.uz/docs/111189#150438
15. https://lex.uz/docs/111189#150438
16. Ручкин О.Ю. Организационно-правовые аспекты участия органов внутренних дел Российской Федерации в договорных обязательствах: Дисс. ... к. ю. н.-М ., 1997. –С. 152-153.
17. Чуб Г. П. Договор об охране квартир вневедомственной охраной. Лекция. М.: МВШМ МВД СССР, 1973. С. 13-14.
18. Смирнов В.И. Договоры об охране собственности граждан и юридических лиц с участием вневедомственной охраны при органах внутренних дел: Дисс. ... к. ю. н. - СПб., 2001. -С. 139-140.
19. Ручкин О.Ю. Организационно-правовые аспекты участия органов внутренних дел Российской Федерации в договорных обязательствах: Дисс. ... к. ю. н.-М ., 1997. – С. 147-148.
20. Смирнов В.И. Договоры об охране собственности граждан и юридических лиц с участием вневедомственной охраны при органах внутренних дел: Дисс. ... к. ю. н. - СПб., 2001. -С. 145-146.
21. Брагинский М. И., Витрянский В. В. Договорное право. Книга третья: Договоры о выполнении работ и оказании услуг. – М.: «Статут», 2023. С. 728.
22. Абрамов В. А. Правовые и организационные основы деятельности вневедомственной охраны при органах внутренних дел: Дисс. ... к. ю. н .-М .,2001. - С. 88.